

## KIYIM MODELLARINI YARATISHDA ESKIZLAR VA SHAKLLARNING RO`LI

**Nizamova Barno Baxtiyorovna**

*Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi kafedrasida, katta o'qituvchi,  
Farg'ona politexnika instituti, Farg'ona, O'zbekiston*

**Annotatsiya** Dizayner – modelerlar yaratayotgan modellar ularning mashaqqatli mehnati hisoblanadi. Modellarini namoyon etishda eskizlarning ro'li haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular uchun materialni o'rganish, tahlil qilish, ishlov berish loyiha ustida ishlash davomida olib borilishi zarur bo'lgan hamda har doim taqqoslash va tanlash davom etadi. Hamda o'zining qonuniyatiga bo'ysunadi.

**Kalit so'zlar:** Dizayn, modelyer, eskiz qonuniyati, loyiha turlari, materialni o'rganish, vertikal va gorizontal chiziqlar, rivojlanish davri, mayda va yirik gulli, pigment, rang, kostyum, geometrik va plastik shakllar, shakl chegarasi.

Respublika to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg'or «klaster modeli»ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan kon'yunkturasi sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida soha mutaxassislari oldiga juda katta vazifalarni yuklaydi, ayniqsa modeler-dizaynerlarga chunki ularning mahorati sababli yangi turdagi kiyimlar assortimenti va moda yo'nalishlari shakllanadi va rivojlanadi.

Shunga ko'ra eskizni buyum ko'rinishi, umumiy gaboriti, xarakterini hisobga olgan holda, detallariga unga aniqlik kiritilmay tayyorlash mumkin. Shakllar aniqlanib bo'lgach, eskizga aniqroq ishlab beriladi. Agar buyum o'lchamlari katta bo'lsa masshtab aniqlanadi. Agar buyum o'lchami katta bo'lmasa eskiz haqiqiy kattaligida bajariladi, chunki alohida bo'limlarni mutanosibligini his etish, plastik, konstruktiv va estetik bog'liqlikni aniqlash lozim.

Eskizni ish xomakisidan tizimli va ketma-ket foydalanish mumkin bo'lgan hatolarga yo'l qo'ymaslik, qaytadan ishlashni oldini oladi. Eskizlar masshtabda kichraytirilgan proyeksiyalarni loyiha ustida ishlash tugallanguncha saqlash zarur. Izlanish jarayonining barcha bosqichlarini yaxshi va yomon tomonga o'zgarishi aniqlanadi, eng yaxshisi varianti tanlanadi. Eskizlarni barchasini taqqoslash va faqat muallif ishi sifatini aniqlash osonlashtiriladi, rahbariga eng yaxshi variantni tanlashga yordam beradi.

Materialni o`rganish, tahlil qilish, ishlov berish loyiha ustida ishlash davomida olib borilishi zarur. Har doim taqqoslash va tanlash davom etadi. Eskizda izlanish ishlarida navli qog`ozdan foydalanish mumkin. Eskiz yumshoq bajarilgani maqul: qattiqligi 3m, 4m . Bunday qalamda chizilgan chiziqlar aniq bo`lmasa yoki ortiqcha chiziqlar oson o`chiriladi. Eskizga eng oddiy umumiy talablar qo`yiladi. U ohirgi yakuniy Shaklga dahldor emas, aksincha musavvirning fantaziyasi, hayolan ishni mukammallashtirishga ishlaydi. Eskiz tayyorlashda loyiha grafikasi vositalari keng qo`llaniladi. Eskiz chiziqli va rang-soyali bo`lishi mumkin. Ob`yektlarning turli-tumanligi, loyihani eskizlashda turli xil grafik ishlov berishlardan foydalaniladi. Eskiz o`z xarakteri bo`yicha asosiy mavzu omillari bilan bog`liqdir. Loyiha ustida ishlashda barchaga bir xil ketma-ketlikda ishlashni tavsiya qilish



noto`g`ri bo`ladi. Masalan, dizayn sohasida ishlaydigan insonlar ma`lumot to`plagach, o`xshashi bilan tanishgach, shu zohotiy oq eskiz yaratishga, asosan qalamda, Shakl va rang tonlarida bajarish kerakmi? - yo`q albatda. Tajribadan ma`lumki, ba`zi musavvir konstruktorlar loqal taqriban hajmiy yechim bo`lmasa grafik ulanishga kirisha olmaydi. Hajmiy namunasiz ular o`z fikrlarini grafikada ifoda eta olmaydi. Boshqalar esa bir vaqtda buyum loyihasi yechimini ham hajmiy, ham qalam, rangda izlanish olib borishadi. Shu sababli loyiha ustida ishlayotganda qo`l ostida yengil o`zgartiriladigan materiallar bo`lishi maqsadga muvofiq va bir vaqtda hajmida, grafikasida ishlash imkoni tug`iladi.

1-rasm. Eskiz

Mavzu yechimiga har kimda o`z yo`li bo`lishi kerak. Ushbu bosqichda barcha asosiy masalalar hal etiladi: Shakl, rang, masshtablilik, proporsiya, funksional holati va boshqalar. Eskizlashdan so`ng musavvirlik- konstruktiv takliflar masalasi yechiladi. Loyihani bajaruvchi tomon ham vaqtni egallaydi va firklarish yuklamasi kam talab etiladi. Eskizning rang

masalalari yechimi asli qaysi texnikada bajarilgan bo'lsa shunday texnikada bajarilishi va shu materialdan bajarilgan bo'lishi kerak. Rang variantlari qancha ko'p bo'lsa, shuncha ishonch bo'ladi. Taqqoslashda yaxshi aniqlanadi. Lekin eskizda ishlash mashqlari juda ortiq bo'lishi va ularning mexanik qaytarilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ishlanish bo'lar-bo'lmasga emas ongli ravishda olib borilishi kerak. Eskizlarni yaratishda shakllarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shakllarni rivojlantirish bir necha qonuniyatlar bilan amalga oshiriladi:

Kostyumning asosiy elementlari to'g'ri burchak, trapetsiyava oval bo'lgan. Bularning har biri ma'lum vaqt siklida takrorlanadi, ya'ni siklsimon qonuni bo'yicha rivojlanadi, Vaqti-vaqti bilan bitta shakl boshqalariga nisbatan peshqadam – lider bo'ladi. Lekin ikkita boshqa shakllar g'oyib bo'lmasdan, birga "yashaydi" va doimo rivojlana boradi. Ma'lum bir vaqt o'tganda peshqadam Shakl inqirozga uchraydi va ikkitadan bittasi peshqadamlikka o'tadi.

Spiral qonuni rivojiga ko'ra bu voqea doimo takrorlanadi va qonuniyat bo'lib qoladi. Peshqadam shakllar ma'lum bir vaqtda takrorlanib, Shaklni o'xshash (analog) qatorini yaratadi.

Shaklning siluyetlari geometrik turi bo'yicha o'xshash bo'lgan holda uning ichki yechimi, dekorativ elementlari, konstruktiv tizimi, siymo yechimi har xil bo'ladi, chunki har bir vaqt davomida o'ziga xos texnik, va ma'naviy turmush farovonligi bo'ladi.



2-rasm. Eskiz

Shakl rivojlanish jarayonida geometrik va plastik shakllar bir-biring o'rniga keladi. Nozik, figuraning tabiiy proportsiyalarini taqidlaydigan kiyim Shakli o'rniga, figurani yashiradigan hattoki uni o'zgartiradigan geometriklashgan kiyim Shakllari modaga keladi. Bu ketma-ketlik bir-biridan chiqib, Shakl rivojlanishida uzilmas zanjirni yaratadi.

Modani rivojlanish jarayonida plastik va geometrik Shakllarni rag`batlantirilgan qarama-qarshiligi ular eng yuqori darajaga erishgan vaqtda seziladi. Lekin shakllar rivojlanishi jarayonida ushbu rag`batlarni o`zaroaloqadorligiyuzagachiqadi.

Mobil elementlari shakllantiruvchi bo`lib, plastik yoki geometrik shakllarni yetilishi yoki inqirozga uchrashini ifodalaydi.

O`z navbatida asosiy rag`batlarni almashishi mobil elementlarni tarkibiga ta`sir etadi.

Modaning geometrik yoki plastik davri kompozitsiyani barcha elementlarida namoyon bo`ladi, ya`ni ichki bo`linishlari va detallarida, rang va fakturada.

3-



rasm. Eskizlar

Kostyumning muayyan shakli doimo o`zgaradi, ammo u xech qachon butunlay yo`qolmasdan vaqt sari o`zgaradi. Paydo bo`lish va rivojlanish davrlarida kostyum shakliga ichki tebranish, kattalanish yoki siqilish, transformatsiya, aktsentni bir qismdan boshqasiga o`tishi mansub. Bu juda muhim, chunki shaklni ma`naviy eskirishi va uzoq yashashi zamonaviy dizaynni murakkab savollaridan biridir.

Vaqt sari shaklni o`zgarishi turg`unlik va noturg`unlik bilan bog`liq, ya`ni uni elementlarini stabilligi va mobilligi bilan. Shaklning har xil qismlari turli turg`unlik darajasiga ega. Ba`zi elementlariga noturg`unlik umuman mansub emas, ular shakl tarkibiga bevosita ta`sir etmasa ham, bevosita uni shakllanishiga yoki inqiroziga sabab bo`ladi. Ularga chiziqlar, rang, faktura, bezak va b. kiradi. Shakl tarkibi va konstruksiyasi esa turg`un elementlaridir.

Tarkibni o`zgarishi bironda ro`y bermaydi. Avval xarakat, ko`chish, uni ichki elementlarini tangligini o`zgarishi ro`y beradi.

Ular shaklni rivojlanish yo`nalishni hosil qiladi, ya`ni usishni yoki inqirozni. Shakl o`z oxirgi chegarasiga yetib, doira, kvadrat yoki uchburchakka maksimal yaqinlashib, befarq holatga keladi, bu holat uni o`zgarish belgisidir. Shaklni bu rivojlanish qonunini G.Veylg` isbotlagan.

Kostyum shaklini rivojlanish chegarasi cheksiz emas. Uni rivojlanishi asosida va niqoblarini energetik pulsatsiyasida odam figurasi va uni o'lchamlari (bo'yi, eni, qo'l va oyoq uzunligi) yotadi.

Shakl tirik organizmlar kabi tashqi o'zgarishlar ta'sirida pulsatsiya etadi. Pulsatsiya vertikal va gorizontal yo'nalishida bo'lishi mumkin. Kostyum rivojlanish jarayonining o'z amplitudasi bor: tanaga yopishib turishdan, hattoki siqib qo'ygan holdan (mahsus korsetlar va b.), to tanadan maksimal uzoqlashishgacha (krinolin, turnyur va b. yordamida). Bu pulsatsiya turi gorizontal yo'nalishda ro'y beradi.

Vertikal yo'nalishdagi pulsatsiya kiyimni uzunligini (mikro-minidan to supermaksigacha) va yelka holatini nazarda tutadi. Ularda vrestetikideali va texnik imkoniyatlari bilan bog'liq. Shakl muayyan vaqt mobaynida o'z o'qi atrofida pulsatsiya etadi, bu holda har bir davrda kostyumni ma'lum joylariga e'tibor beriladi.

Mobil elementlar shakllantiruvchi bo'lib, shaklni paydo bo'lishiga, rivojlanishiga va inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.

2. Qaxxorovich, N. Q., Juraevich, Y. N., Nozimjonovna, O. I., & Baxtiyorovna, N. B. (2021). The Perspective Directions For The Development Of Sericulture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(09), 24-27.

3. Baxtiyorovna, N. B. (2021). Analysis of New Assortments of Women's Dresses Made of Knitted Fabric. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 4-8.

4. Baxtiyorovna, N. B. (2022). The features of pattern formation on flat knitting machines. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(02), 1-11.

5. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.

6. Nozimjonovna, O. I., Madaminovich, K. K., Umarjanovna, R. S., & Maqsud o'g, E. M. M. (2022). ANALYSIS OF PHYSICOMECHANICAL PARAMETERS OF NEW PATTERNED KNITTED FABRICS OBTAINED ON KNITTING MACHINES WITH TWO CIRCULAR NEEDLES. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(09), 1-9.

7. Ulugboboyeva, M. M. (2021). Creation of new modern clothes from national fabrics. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 63-68.

8. Maripdjanovna, U. B. M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 77-88.

9. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.

10. Ulug'boboyeva M. Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric // *Eurasian Journal of Engineering and Technology*. – 2022. – Т. 10. – С. 121-124.

11. Samiyevna, T. S., & Raxmatovna, M. S. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(5), 1-10.

12. Tursumatova, S. (2022). Selection of sewing machines and establishment of manufactured assortments. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(06), 42-46.

13. Sodiqovna A. M., Abduqodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI // *Science and innovation*. – 2022. – Т. 1. – №. A3. – С. 284-288.

14. Sodiqovna, A. M. (2022). Notipaviy qomatli ayollarga reglan bichimli yeng turlarini avfzalligi. *PEDAGOGS jurnali*, 13(1), 130-133.

15. Sodiqovna, A. M., Abdurashidovna, E. R., & Uktamovna, A. D. (2021). Study of female abnormal body types and analysis. *Journal INX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 333-335

16. Yusupova, D., & Butayeva, N. (2022). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O 'RGANISH. *Science and innovation*, 1(A7), 496-500.

17. Sovridinova, M. H., & Yusupova, D. U. (2021). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR KIYIMLARIGA BO'LGAN TALABLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал академических исследований*, 1(9), 675-679.

18. Yusupova, D. U., & Sovridinova, M. X. (2020, November). O 'ZBEKISTONDA KEKSAYGAN AYOLLAR UCHUN KIYIM-KECHAK DIZAYNIDAGI HOZIRGI DAVLAT VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 190-192).

19. Samievna, T. S., Mirkomilovna, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 275-277.

20. Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). THE METHODS OF WELDING DETAILS OF SEWING ITEMS FROM THERMOPLASTIC MATERIALS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 125-132.

21. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunuva, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yangli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 622-626.

22. Xoshimova, M. X. Q., & Yuldasheva, D. B. Q. (2021). IPAK MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAHLILI. *Scientific progress*, 2(8), 627-633.



23. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). STUDY OF PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF SILK FABRICS AND THEIR ANALYSIS. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(3), 28-34.

24. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». *Science and Education*, 3(5), 584-590.

25. Jaxongirovna, X. D. (2022). ZAMONAVIY KIYIM TIKISHDA TRANSFORMATSIYA USLUBLARINING O'RNI. *Uzbek Scholar Journal*, 7, 112-117.

26. Tursumatova, S., Tursunov, D., & Isroilova, N. (2023). Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 204-209.

27. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 56-64.

28. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. *Central Asian Journal Of Arts And Design*, 2(12), 74-78.

29. Рахманова М. М., Анорбоев А. МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 555-556.

30. Davronbek, T. (2023). CLO3D YORDAMIDA AYOLLAR QOMATLARINI HAMDA UNDA KIYIM O'RNASHUVINI TAHLIL QILISH ORQALI KIYIM DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH. *Scientific Impulse*, 1(8), 599-603.

31. Odinabonu, R. (2022). PALTOBOP QALIN GAZLAMALARNING SUV SHIMISH XOSSALARINING TAHLILI. *Scientific Impulse*, 1(4), 1626-1630.

32. Валиев, Г. Н. (2018). Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на ее основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика ее определения. *Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности*, (3), 106-113.

33. Мирзахонов, М., & Валиев, Г. Н. (2020). Разработка новой структуры плательно-костюмной ткани из натурального шелка Development of a new structure of dress-costume fabric made of natural silk. In *Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной* (pp. 261-264).

34. Хомидов, В. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2018). Устройство для испытания натяжных приборов текстильных машин. In *Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2018)* (pp. 89-92).

35. Maxmudjon, T., Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). The Relationships between Constructive and Technological Solutions in the Creation of Clothes. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 55-59.

36. Abdullaev, M. M. (2022). Features of calculating the consumption of raw materials in the production of terry fabrics on rapier LOOMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(07), 1-9.

37. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И. О., & Турдиев, М. (2020). Новая технология подготовки нитей основы к ткачеству при выработке тканей крепдешин. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 110-летию со дня рождения профессора АГ Севостьянова (pp. 147-151).

38. Орипов, Ж. И. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2021). Исследование влияния способа производства шёлка-сырца на его качественные характеристики. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 150-летию со дня рождения профессора НА Васильева (pp. 63-67).

39. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И., & Турдиев, М. (2019). Улучшение качества намотки креповых нитей на крутильных машинах. Актуальная наука, (11), 9-12.

40. Nozimjonovna, O. I. (2022). Constructive analysis of modern circular needle knitting machines. American Journal of Applied Science and Technology, 2(06), 75-79